UDK-665.355.73

SOVUN DARAXTI (KOELREUTERIA PANICULATA) URUG‘KO‘CHATLARINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

Shaymanov Sherzod Kamol o‘g‘li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti assistenti

https://doi.org/10.5281/zenodo.14034951

Annotatsiya. *Maqola juda dolzarb bo‘lib, unda sovun daraxtining urug‘larning pishib yetilish muddatlari, strifikatsiya qilish usullari, ekish jarayonlari hamda urug‘larnig ko‘milishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *sovun daraxti, ko‘chat, urug‘, saponin, mevalar, stratifikatsiya, tuproq, agrotexnik tadbirlar, qumda ekilishi, transheya, torf.*

Аннотация. *Статья очень актуальна и содержит информацию о сроках созревания семян мыльного дерева, методах стратификации, процедурах посадки и захоронении семян.*

Ключевые слова: *мыльное дерево, саженец, семена, сапонин, плоды, стратификация, почва, агротехнические мероприятия, посадка в песок, траншею, торф.*

Abstract. *The article is very relevant and contains information about the ripening time of soap tree seeds, stratification methods, planting procedures and seed burial.*

Keywords: *soap tree, seedling, seeds, saponin, fruits, stratification, soil, agricultural practices, planting in sand, trench, peat.*

Kirish

Respublikamiz shahar va qishloqlarini ko‘kalamzorlashtirishda ko‘p miqdorda noyob daraxt turlarining ko‘chatlariga talab ortmoqda. O‘zbekistonda yashil boylikni asrash va ko‘paytirishga juda katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek biologik resurslardan oqilona foydalanish, o‘simlik dunyosi va ular o‘sadigan muhit muhofazasini yaxshilash, genetik fondni saqlab qolish va qayta tiklash bo‘yicha muhofaza etiladigan tabiiy hududlar maydoni kengayib bormoqda. Respublikamiz miqiyosida “Yashil makon” umummilliy doirasida noyob va manzarali ko‘chatlarga bo‘layotgan talab yildan yiga ortib bormoqda.

Atrof muhit musaffoligini asrashda, axoli turar joylarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirishda yashil o‘simliklarning o‘rni beqiyosdir. Fan texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabat bilan tabiiy zahiralaridan xo‘jalik maqsadlarida tobora ko‘proq foydalanilmoqda. Albatta bu jarayonlar daraxt turlarining o‘sishi va rivojlanishiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Sho‘rlangan xududlardagi noqulay iqlim omillari ta’sirini pasaytirish uchun, sho‘rga chidamli daraxt turlaridan o‘rmonzorlar barpo etish lozim.

Tabiiy holda sovun daraxti Xitoy, Koreya va Yaponiyada o‘sadi. MDX davlatlarida madaniy holda faqat janubiy hududlarda ko‘paytiriladi, shu jumladan Markaziy Osiyoda yetishtiriladi. Iyun oyning ikkinchi yarimida gullaydi. Gullar sarik, nozik apikal paniklarda tuplanadi. Chiroyli mevalari shishgan 3-bargli qutilarda joylashgan bo‘lib, pishganida pushti rangli bo‘ladi. Har bir qanotchasida 1-2 qora dumaloq urug‘ joylashgan bo‘ladi. Mevasi avgust-sentabr oyida pishib yetiladi. Quttilaridagi saqlangan gullar, daraxtlarda qish dovomida saqlanadi. Tuproqqa talabchan emas, qurg‘oqchilikka va tuprokning shurlanishiga chidamli daraxtdir. Daraxt po‘stolg‘ida soponin moddasi mavjud.

Sovun daraxti ko‘chatlari yetishtirish uchun uning urug‘lari to‘liq pishib yetilgach terib olish kerak, mevalar po‘stloq qismi ajratilib, soya joyda quritiladi va bahorgi ekish uchun saqlash

kerak. Urug‘lar iloji boricha sovun daraxtining manzarali daraxtlaridan terilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Mevalar terilishi bilan po‘stloq qismiga ishlov beriladi va nam qumda transheyalarda stratifikatsiya qilinadi, har 10 kunda ekish ishlari bajarilgunga qadar transheyalarga suv quyib namli muhit ushlanib turiladi. Ekishdan oldin mevasidan urug‘lar ajratib olinadi va bahorgacha saqlanadi.





Sovun daraxtini terilgan urug‘lari

Sovun daraxtining yig‘ilgan urug‘lari havo o‘tkazadigan matolarda yoki yog‘och kutilarda saqlanadi, unuvchanligini bir yilgacha saqlaydi. Urug‘larni ekishdan oldin suzg‘ichda namlab olinadi. Unuvchanligi 55-60% bo‘lib, 1000 dona urug‘ning o‘rtacha vazni 100-125 gr.ga teng. Urug‘larni kuzda yig‘ib olingandan so‘ng darxol quritiladi va plastik bilan yopib qo‘yiladi. Bahorda ekish paytida urug‘lar 15 kun stratifikatsiya jarayonini o‘taydi. Urug‘larni tezlashtirib tayyorlash uchun ular issiq suv bilan namlanadi (50-60%) va bir kun davomida suvda qoldiriladi. Shundan so‘ng urug‘lar qumda saqalanadi 18 - 22° haroratda, 15-20 kundan keyin o‘sishni boshlaydi. Ekish miqdori 82 gr urug‘ – 1 pogona m ga sarf bo‘ladi, urug‘lar ustiga 3 sm.gacha tuproq solish mumkin.

Urug‘larni qishdan oldin kuchli shamoldan ximoyalangan quyosh nuri tushadigan joylarga ekish keyinchalik ustidan yog‘och qirindisi sepish tavsiya etiladi. Bahorgi ekishda urug‘larni iliq suvga botirib ko‘yish kerak, keyinchalik 3-5°S da 2 xaftadan 3 oygacha stratifikatsiya qilish mumkin.

Kuzatuvlarga ko‘ra, baxordagi sovuqdan so‘ng may oyining o‘rtalarida ekilgan ba’zi urug‘larning stratifikatsiya davri 1 oy bo‘lganda 20 kunda unishni boshlaydi. Nixollar +15° haroratda, odatda 1-3 xaftadan so‘ng (ob xavoga qarab), yoki yoz davomida ayrim hollarda kelasi yiliga ham chiqish mumkin. Xattoki mustaqil o‘z-o‘zidan changlangan daraxtlar xam urug‘ining unib chiqishi 50% yuqori.



Qumda ekinilgan urug‘larning ekilish jarayoni

Sovun daraxti urug‘lari stratifikatsiyalangan keyin namroq qum bilan aralashtiriladi, ular 6-7 kunda unib chiqadi, ya’ni oddiy stratifikatsiyalanganga nisbatan deyarli 10 marta tezroqdir.

Bu jarayon (kinin, benzilaminopirin va boshqalar) ma’lum sharoitda zarodish rivojlanishiga ta’sir etmagan holda stratifikatsiyalash davrini qisqartiradi.

Qiyin o‘tkazuvchan po‘stloqli urug‘lar uchun tayyorlashning yangi usuli tavsiya etiladi – bu bevosita ekish oldidan mexanizatsiyalashgan yo‘l bilan o‘tkazish imkonini beruvchi vakumda urug‘larni majburiy to‘yg‘izishdir. Bunda urug‘lar metall kameraga joylanadi. U ma’lum miqdorgacha avtomatik klapan orqali suv bilan to‘ldiriladi. Urug‘larning kamerada qalqib chiqishi prujina ostidagi disk bilan cheklanadi. Kameradagi havo vakuumli nasos yordamida tortib olinadi. Natijada me’yordagi sharoitda singib ketgan havo siyraklashuv vaqtida suyuqlikdan va undagi urug‘lardan tezlikda ajraladi. Kameradagi bunday holat urug‘ turi va po‘stlog‘ining zichligiga qarab 0,5-1,5 soat davomida saqlanadi. Bu jarayon iliq suvdan foydalanganda yaxshi o‘tadi. Sikl tugashi bilan nasos to‘xtatiladi, ignali klapan o‘chiriladi va kamera atmosfera bilan bog‘lanadi. Bunda bosim ko‘tarilishi tufayli havodan bo‘shagan urug‘ to‘qimalariga suv kiradi.

Tuproq aralashmasi uchun 1 qism torf yoki qora tuproq va qumdan 2-3 qism olinadi. Ko‘chatlar sovuqqa juda sezgir. Shuning uchun 2 yil davomida qishda ko‘chatlar plyonka yoki agrotola bilan yoy ko‘rinishida yopiladi va ichki qismiga yog‘och qirindisi solinadi. Agar dastlabki 2 yil ichida sovun daraxti tuvaklarda yetishtirilsa unda eng yaxshisi 5 litrli idishlarga ekkan ma’qul. Sababi ko‘chat sezilarli darajada tez o‘sadi. Sovun daraxti ko‘chati mavsumiy bo‘lgani uchun qish vaqtida idishlardagi ko‘chatlarni iliqroq joyga ko‘chirish kerak va 2-3 xaftada 1 marta sug‘oriladi.

Fevral oyida urug‘lar stratifikatsiya qilib oldindan tayyorlab qo‘yilgan jo‘yaklarga ekiladi, yog‘och qipig‘i jo‘yakning ustki qismiga sepiladi va jo‘yaklar zaxlatib sug‘oriladi. Sovun daraxti urug‘lari yalpi unib chiqqunga qadar jo‘yaklar 600-800 m^3/ga miqdorida 3-4 marotaba ko‘klamda sug‘oriladi.

Xulosa

Xulosa o‘rinda shuni aytishim mumkinki sovun daraxti urug‘larini unuvchanligini 95 va 100 % ko‘karishiga erishish uchun strifikatisiya usullaridan samarali foydalanish kerak.

Ko‘chat yetishtirish davrida barcha agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilishi ta’minlansa belgilangan maydondan sog‘lom nihollarning chiqish soni yuqori bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 11 sentabrdagi PQ-3262-sonli “Avtomobil yo‘llarining arxitektura-landshaft konstruksiyasi va obodonlashtirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zRVazirlar Mahkamasining 2009 yil 9 martdagi 59-son qarori “Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalari” –Toshkent, 2009.
3. Koelreuteria paniculata (http://www.plantarium.ru/page/view/item/46450.html): информация о таксоне в проекте «Плантариум» (определителе растений и иллюстрированном атласе видов).
4. Koelreuteria paniculata (golden rain tree) (https://www.cabi.org/isc/datasheet/29493) // CABI. Архивировано (https://web.archive.org/web/20200610143522/https://www.cabi.org/isc/datas heet/29493) 10 июня 2020 года.